

GO‘ZAL XULQ**Saida‘zamxon G‘ulomov***O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi
Islomshunoslik yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Go‘zal xulq bizning hayotimizga chuqur ta‘sir ko‘rsatishi, ko‘proq baxt, muvaffaqiyat va farovonlikka olib kelishi mumkin. Ushbu maqola go‘zal xulq haqida o‘rganadi, uning miyamiz, tanamiz va munosabatlarimizga ta‘sirini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: go‘zal xulq, nekbinlik, chidamlilik, baxt, muvaffaqiyat, farovonlik.

Аннотация: Хорошее поведение может оказать глубокое влияние на нашу жизнь, приводя к большему счастью, успеху и процветанию. В этой статье рассматривается красивое поведение и его влияние на наш мозг, тело и отношения.

Ключевые слова: Хорошее поведение, благодарность, оптимизм, устойчивость, счастье, успех, благополучие.

Abstract: Good behavior can have a profound impact on our lives, leading to greater happiness, success and prosperity. This article looks at beautiful behavior and its impact on our brains, bodies and relationships.

Keywords: Good behavior, gratitude, optimism, resilience, happiness, success, well-being.

KIRISH / ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION: Xulq go‘zalligi – husni xulq, ibratli fe‘l-atvor, shaxsning xarakteri va xatti-harakati orqali o‘zgalarga namuna bo‘la oladigan fazilatlari bilan ijobiy va yoqimli taassurot uyg‘otuvchi axloqiy kamolot belgisini ifodalovchi tushuncha. Xulq go‘zalligi insonning ichki (botiniy) va tashqi (zohiriy) olami uyg‘unligiga asoslanadi. Insonning botiniy go‘zalligi uning odob, xulq va axloqiy fazilatlari bilan belgilanadi. Bu nafosat ilmida xulq go‘zalligi deb ataladi. Botiniy go‘zallik bevosita axloqiy fazilatlar va munosabatlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, “xulq” tushunchasi axloqning tarkibiy qismi sifatida inson kamolotida asosiy omil hisoblanadi. Insonning xulq go‘zalligi estetik va axloqiy mazmun kasb etadi. Estetik mazmuni shundaki, u “go‘zallik”, “ulug‘vorlik”,

“qiziqarlilik”, “tug‘yoniylik”, “hayrat” kabi estetik tushunchalar orqali namoyon bo‘lsa, “ezgulik”, “bag‘rikenglik”, “halollik”, “vijdonlilik” kabi axloqiy tushunchalar bilan barqarorlashadi. Ezgulikning go‘zallik bilan uyg‘unlashuvi xulq go‘zalligini yuzaga keltiradi. Xulq go‘zalligini namoyon etuvchi sifatlar va fazilatlar nisbiy xarakterga ega. Ular davrlar o‘tishi bilan o‘zgaradi, sayqallashadi va bir qator axloqiy me‘yorlar hamda mezoniylar tushunchalar orqali takomillashib boradi. “Iymon”, “muhabbat”, “ezgulik” kabi falsafiy-axloqiy tushunchalar, “niyat”, “xavotir”, “mas‘uliyat” kabi mezoniylar tushunchalari insonda xulq go‘zalligi mazmunini boyitadi. Bu tushunchalar xususiylik tabiatiga ega bo‘lib, ularning har biri alohida holatlarda xulq go‘zalligining muayyan jihatlarini aks ettiradi. Biroq, insonning axloqiy-estetik munosabatlarida bular bir-biri bilan uzviy bog‘langandagina chinakam go‘zallikka aylanadi.

TADQIQOT USULLARI / МЕТОДЫ / METHODS: Ushbu ilmiy maqolani yozishda bir qancha kitoblardan va internet materiallaridan keng foydalanildi.

MUHOKAMA / ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION: Sharq hikmatlari durdonalarida xulq go‘zalligining o‘nta belgisi alohida ko‘rsatiladi. Bular: 1) bo‘lar-bo‘lmasga odamlar bilan janjallashmaslik; 2) insoflilik; 3) birovdan ayb qidirmaslik; 4) biror kishi noloyiq ish sodir etgan bo‘lsa, uni yaxshilik yo‘liga solib yuborish; 5) kechirimlilik; 6) muhtojlarning hojatini chiqarish; 7) boshqalarga yordam qo‘lini cho‘zish; 8) nafsini tiya bilish; 9) boshqalarga ochiq chehra bilan muomala qilish; 10) doimo yaxshi so‘zlash. Ushbu belgilardan uchta, ya‘ni “bo‘lar-bo‘lmasga odamlar bilan janjallashmaslik”, “boshqalarga ochiq chehra bilan muomala qilishlik”, “doimo yaxshi so‘zlash” insonning xatti-harakati bilan emas, balki chiroyli, shirin so‘zi natijasida amalga oshadigan axloqiy hodisalardir.

Islom dini odob-axloqqa shunchaki muomala madaniyati sifatida emas, balki go‘zal axloq sohibi ulkan ajru savoblarni qo‘lga kiritadigan ibodat sifatida qaraydi. Nabiy sollallohu alayhi vasallam go‘zal xulqni qiyomatda bandalar o‘rtasidagi bir-biridan tafovut qiluvchi afzallikning asosi qilib belgiladilar va: “Oxiratda Menga eng mahub va eng yaqin bo‘ladiganingiz xulqi eng yaxshilaringizdir. Oxiratda menga eng

yoqimsiz va mendan eng uzog‘ingiz esa xulqlari eng yomonlaringizdir va ezma vaysaqilar, mutakabbirlar va (og‘zini to‘ldirib, labini burib) takabburona so‘zlovchilardir”, – dedilar. (Imom Termiziy rivoyati.)

Shuningdek, u zot alayhissalom Qiyomat kuni savob va gunohlar tortiladigan mezonidagi eng og‘ir narsa ham husni xulq ekanini aytdilar. “Qiyomat kunida mo‘minning mezonida husni xulqdan-da og‘irroq narsa bo‘lmas. Albatta, Alloh qo‘pol hamda fahsh so‘zlarni so‘zlovchi kimsani yomon ko‘radi”. (Imom Termiziy rivoyati.) [1]

NATIJALAR / РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS: Chiroyli xulq uchun beriladigan ajr ro‘za va tungi namozlar kabi asosiy ibodatlarga beriladigan ajr kabidir. “Albatta, mo‘min kishi o‘zining go‘zal xulqi bilan kunduzi ro‘zador, kechasi (ibodatda) bedor kishilar darajasiga yetadi”. Imom Abu Dovud rivoyati.

Go‘zal xulqning ulug‘lanishi shu darajaga yetdiki, u jannatga kirishning asosiy sabablaridan biri etib belgilandi. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan odamlarni jannatga eng ko‘p nima kiritishi haqida so‘rashganida “Taqvo va go‘zal xulq”, – deb javob berdilar.[2]

Boshqa bir hadisda esa Nabiy alayhissalom yaxshi xulq sohibiga jannatning eng yuqorisidan joy va‘da qilganini aytganlar. “Garchi haq bo‘lsa ham tortishuvni tark qilgan kishiga jannatning chetidan uy berilishiga kafilman. Garchi hazillashib bo‘lsa ham yolg‘on gapirmagan kimsaga jannatning o‘rtasidan uy berilishiga kafilman. Xulqi chiroyli bo‘lgan kishiga esa jannatning eng oliy joyidan uy berilishiga kafildirman”. (Imom Abu Dovud, Termiziy va Ibn Moja rivoyatlari.)

XULOSA / ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION: Insonning xulqi chiroyli bo‘lishi uchun, avvalo, uning qalbi pok bo‘lishi lozim. Chunki qalb inson jasadining sultoni, qolgan a‘zolar esa unga tobedir. Agar qalb pok bo‘lsa, qolgan a‘zolar ham unga ergashadi, agar u nopok bo‘lsa, barcha a‘zoldan nopok amallar sodir bo‘ladi.

Axloq ilmi ulamolari odamdagi axloqlar uni yaratilishida qo‘shilib yaratilgan bo‘ladimi yoki kishi axloqni keyin o‘rganadimi, degan savolga “Ota-onasida mavjud bo‘lgan ba‘zi axloqlar insonga onasining qornidalik paytidayoq o‘tadi. Alloh bandani

yaratish paytida axloq qobiliyatini ham qo‘shib yaratadi. Inson o‘sishi jarayonida, tarbiya, muhit va odatlanish oqibatida u yoki bu axloqni o‘zida rivojlantiradi yoki yo‘qotib yuboradi”, – deganlar. Alloh taolo insonni xushsurat va go‘zal qilib yaratgan. Bu go‘zallik insonni Alloh taolo yaratgan boshqa mahluqotlariga qiyoslaganda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Endi, inson xilqati va surati chiroyli bo‘lganidek o‘zining siyrati va xulqini ham go‘zal qilsa, haqiqiy komil inson bo‘ladi. Barcha yaxshi xulq va sifatlarni o‘zida jamlagan va shu borada ham insonlar uchun go‘zal namuna bo‘lgan zot Rasululloh sollallohu alayhi vasallam edilar.

Bu haqda Alloh taolo “Qalam” surasining 4-oyatida shunday marhamat qiladi: “Shubhasiz, Siz buyuk xulq uzradirsiz!”[3] Olimlardan biri aytadi: “Alloh taolo O‘z Payg‘ambari Muhammad sollallohu alayhi vasallamni tavsiflashni iroda qilganida u kishining nasl-nasabi yoki molu davlati bilan vasflamadi. Balki, “Shubhasiz, Siz buyuk xulq uzradirsiz!” – dedi. Bas, shunday ekan, bilingki, sizning qiymatingiz xulqingiz bilandir!”[4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

СПИСОК ИСТОЧНИКОВ / REFERENCES:

1. Qiyomat kunida mo‘minning mezonida husni xulqdan-da og‘irroq narsa bo‘lmas <https://kun.uz/50787975?q=%2F50787975#>
2. Jannatga birinchi kiradiganlar <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/jannatga-birinchi-kiradiganlar>
3. Qalam surasi <https://quronvasunnat.uz/quron?sura=68>
4. Rasulullohning bizga ibrat sifatlari | https://minbar.uz/post/rasululloning-bizga-ibrat-sifatlari?cat_id=6